

MUMTOZ SHE'RIYATDA TASAVVUFIY OBRAZLARNING POETIK VA ESTETIK VAZIFALARI

Alixonova Mohinur,

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18513870>

Annotatsiya. Maqolada mumtoz adabiyot namunalari asosida tasavvufiy obrazlarning ramziy qatlamlari, ularning estetik ta'sirchanligi va g'oyaviy yuklamasi yoritiladi. Tasavvufiy timsollar an'anaviylik xususiyatiga ko'ra turlarga ajratilib, ularning badiiy matndagi funksional ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari tasavvuf poetikasining mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi o'rnini hamda badiiy mahorat qirralarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, tasavvuf poetikasi, tasavvufiy obrazlar, ramziylik, estetik funksiya, badiiy matn tahlili.

Аннотация. В статье на основе образцов классической литературы освещаются символические пласты суфийских образов, их эстетическое воздействие и идеологическая значимость. Суфийские символы классифицируются по их традиционным характеристикам, раскрывается их функциональное значение в художественном тексте. Результаты исследования служат определению роли суфийской поэтики в развитии классической литературы и выявлению граней художественного мастерства.

Ключевые слова: классическая литература, суфийская поэтика, суфийские образы, символизм, эстетическая функция, анализ художественного текста.

Abstract. The article explores the symbolic layers of Sufi imagery in classical literature, highlighting their aesthetic impact and ideological significance. The study categorizes Sufi symbols based on their traditional characteristics and reveals their functional importance within the literary text. The findings of the research serve to determine the role of Sufi poetics in the evolution of classical literature.

Keywords: classical literature, Sufi poetics, Sufi imagery, symbolism, aesthetic function, literary text analysis.

Kirish. Tasavvuf adabiyoti Sharq mumtoz poetikasining g'oyaviy-estetik mohiyatini va she'riyatining obrazlar va ramzlar olamining kengayishiga xizmat qilgan. Mumtoz poetik xususiyatlarini boyitibgina qolmay, chuqur ma'naviy-ruhiy mazmun bilan to'ldirdi. Shu ma'noda tasavvuf – islom falsafasi va ruhoniyligi asosida shakllangan ma'naviy-axloqiy ta'limot bo'lishi bilan birgalikda adabiy jarayonda ramzlar, majoziy obrazlar orqali ifodalanadi.

Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Tanlash va saralash: Mumtoz adabiyot namunalari tasavvufiy mazmundagi xarakterli baytlar tanlab olindi.

2. Tasniflash: Tasavvufiy timsollar va ramzlar ularning an'anaviyligi hamda g'oyaviy vazifasiga ko'ra bir necha turlarga ajratildi.

3. Kontekstual tahlil: Har bir timsolning bayt ichidagi estetik va poetik vazifasi aniqlanib, lug'aviy hamda istilohiy ma'nolari qiyoslandi.

Adabiyotlar sharhi. Tasavvuf adabiyoti, uning timsollar va ramziy tizimi, poetik tafakkuri qadimdan buyon nafaqat Sharq, balki G'arb adabiyotshunosligida ham e'tibor markazida bo'lib kelgan. R. A. Nicholson. "The Mystics of Islam" asarida muallif tasavvufning paydo bo'lishi va taraqqiyotini falsafiy tahlil qiladi. Nikolson islomiy mistitsizmdagi "fano" va "baqo" tushunchalarini, shuningdek, ruhning ilohiy borliq bilan aloqasini tadqiq etib, tasavvufni insoniyat kamolotidagi eng yuksak bosqich sifatida baholaydi [10: 178] Rus sharqshunosi Y. Bertels asarlarida tasavvufiy ramzlar va poetik obrazlar tizimini ilmiy asoslab bergan, shuningdek, Navoiy, Attor va Rumi kabi mutafakkirlar ijodidagi tasavvufiy janrlar evolyutsiyasini yoritgan. [5: 527] J. S. Trimingem o'z tadqiqotlarini tasavvufning tashkiliy va ijtimoiy tarixiga bag'ishlangan. Trimingem tariqatlar, ularning silsilalari va tashkiliy tuzilishi (xonaqohlar, pirlar va muridlar tizimi)ning islom olami bo'ylab tarqalish qonuniyatlarini ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil qiladi. [12: 336] A. Shimmel tasavvufning estetik va psixologik jozibasini ochib beradi. Olima tasavvufiy she'riyatdagi ramzlar olami, va sharqona lirikadagi badiiy tasviriy vositalarning mazmuniy qatlamlarini teran talqin qiladi. [15: 171] Idris Shoh tasavvuf falsafasini zamonaviy psixologiya va umuminsoniy qadriyatlar kontekstida talqin qilib, tasavvufiy rivoyat va masallarning inson ongini o'zgartirish hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi metodik ahamiyatini yoritib bergan [14: 446]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda mumtoz she'riyatdagi tasavvufiy timsol va ramzlarni o'rganish uchun tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik va tavsifiy (descriptive) metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosi sifatida germenevtik tahlil usuli tanlab olindi, bu esa tasavvufiy matnlardagi yashirin ma'no qatlamlarini va ramziy ishoralarni sharhlash imkonini beradi.

Muhokama. G'azal mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiyning quyidagi baytida mumtoz tasavvufiy poetikaning markaziy g'oyasi o'z ifodasini topgan:

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,

Nedinki, ahli haqiqatga bu tariqat erur [3: 723].

Tasavvuf she'riyatida majoz markaziy nazariy kategoriya hisoblanadi. Istiloh sifatida "Haqiqat boqiy, doimiy bo'lgan oxirat, Alloh bo'lsa, majoz haqiqatga yetmoq uchun bir ko'prikdir" [4: 118] Ya'ni, majoz mumtoz adabiyotda estetik ta'sir bilan ma'rifiy g'oyani uyg'unlashtiruvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi. U orqali shoir murakkab tushunchalarni sodda, sezgir va ta'sirchan obrazlar orqali ifodalaydi. Natijada o'quvchi zohiriy tasvirdan botiniy ma'noga yo'l oladi.

Mumtoz adabiyotning go'zalligi va teranligi aynan obrazlar hamda ramzlar tizimi bilan belgilanadi. Sharq mumtoz adabiyoti an'anaviy badiiy tafakkur tizimi bo'lib, unda har bir obraz, har bir badiiy unsur asrlar davomida shakllanib, barqaror ma'noga ega bo'lgan, ramziy belgilar tizimiga aylangan, har bir shoir o'z davrining badiiy an'alariga suyanib ijod qilgan. Qat'iy vazn, qofiya, badiiy vositalar bilan birga ramz va obrazlar tizimi ham tasavvuf adabiyotidagi an'anaviylikni saqlagan. Natijada asrlar davomida

majoziy ma'no ifodalashga qaratilib, o'ziga xos ramziy til (metatil) darajasiga ko'tarilgan. Bu esa mumtoz timsol va ramzlar tizimi shoir bilan o'quvchi o'rtasida "ko'prik" vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga har bir shoir bunday ifodaviy tizimni takrorlamagan, balki yangi ruh bilan to'ldirgan. Rus sharqshunosi Y.E.Bertels mumtoz she'riyat ramzlari, xususan, "yuz" va "zulf" obrazlarini chuqur tahlil qilib, ular Sharq poetikasida barqaror, an'anaviy ma'noga ega bo'lgan obrazlar ekanini asoslab bergan: "Mumtoz Sharq poeziyasi o'z ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan murakkab timsollar tizimidir. Unda har bir ramz, har bir badiiy detal aniq ma'noga ega: "Tasavvuf she'riyatining asosiy mavzusi avvaldan belgilab qo'yilgani va unda tavhid hamda va vahdati vujudan boshqa hech narsani madh etish mumkin bo'lmagani uchun, timsolning rang-barang bo'lishiga ehtiyoj qolmaydi"[5: 109]. Olimning qarashlari biz ilgari aytgan fikr – "mumtoz adabiyotda timsol va ramzlar ma'lum bir barqaror ma'noga ega", degan g'oyani ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Natijalar. Demakki, an'anaviy obrazlar mavjud ekan, ularning ma'no ko'lami va turlarini aniqlash masalasi ham mavhum qolmasligi lozim.

Ilohiyot bilan bog'liq obrazlar mumtoz adabiyotda uchraydigan tasavvufiy timsollarning turlari doirasida asosiy o'rinni egallaydi. Iloh obrazi mumtoz matnlarda, ko'pincha, Mutlaq Haqiqat, Yagona Borliq, Nur, Haq, Mahbub, Sulton kabi timsollar orqali talqin qilinadi. Bunday ifoda usuli tasavvuf adabiyotining badiiylik mezonlariga asoslanib, ilohiy zotni tasvirlashda bevosita o'z nomi bilan ifodalashdan ko'ra, uni botiniy idrok orqali anglash g'oyasini ilgari suradi. Natijada Iloh obrazi badiiy matnda ko'zga tashlanmasa ham, ammo mazmunan markaziy timsol sifatida yuzaga chiqadi. Bu kabi murojaatlar Yaratganga oshiqona nido tarzida namoyon bo'ladi. Tasavvuf obraz va ramzlari ustida chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan, ozarbayjonlik olim N. Go'yushovga ko'ra, "Ya" (Yo) harfi arab alifbosidagi so'nggi harf bo'lib, bevosita Allohning ikki ismi – Sayyid va mushkullarni oson qiluvchi sifatlariga xitob, imdod ma'nolarini anglatadi[8: 100].

Bu obrazlar orqali shoirlar Haq bilan banda o'rtasidagi ruhiy aloqani ifodalaydi:

"Ey sohibi Lavh ul-qalam, devona qildi ishq mani"[9: 58]

Misrada "Lavh ul-qalam" – Yaratganga murojaat, "ishq" – Allohga muhabbatning yuksak darajasi, "devona" – ishq natijasida o'zligini unutib, dunyoga begona bo'lgan oshiqdir. Ko'rinib turibdiki, she'r matnining ma'nosini aniqlashda ramzlar va obrazlar kalit vazifasini bajaradi.

Payg'ambarlar obrazlari. Mumtoz adabiyotda payg'ambarlar obrazlari Qur'oni karim va hadis manbalaridan kirib kelgan bo'lib, ular tasavvuf tafakkurida ramziy, majoziy timsollar darajasiga ko'tarilgan. Shoirlar uchun payg'ambarlar – Haq yo'lidagi komil inson, ma'naviy mukammallik namunasi, haqiqat izlovchi sifatida namoyon bo'ladi. Tasavvuf adabiyotida ular alohida qatlamni tashkil etibgina qolmay, nafaqat diniy, balki

ramziy, ma'naviy va falsafiy ma'nolarni ham mujassam etadi ya'ni har bir payg'ambar bir ruhiy maqomni, ma'rifat bosqichini yoki ilohiy sifatni ifodalaydi.

Gar kalomingni Masih anfosi dedim, ey habib,

Ayb qilmakim, g'alat gohi tushar Qur'on aro[1:38].

“Kalom” – Allohning muborak so'zi, “Masih anfosi” – tiriklik va hayot, “ey habib” – Yaratganga iltijo, “Qur'on” – barcha haqiqatlarning ramzi. Baytda shoir sevgilining (habibning) so'zini ana shunday tiriltiruvchi, ilohiy ta'sirli deb biladi: “Agar men seni Masihga o'xshatgan bo'lsam, bu ko'rar ko'zga xato tuyulishi mumkin. Qur'on karimda ham ba'zan zohiran chalkash ko'ringan oyatlar bo'ladi, ammo botiniy ma'nosi mukammaldir”.

Valiylar va shayxlar obrazlari. Mumtoz adabiyotda valiy va shayx obrazlari tasavvufning inson kamoloti haqidagi g'oyasi bilan bevosita bog'liq. Valiy (valiya) – arabcha “yaqin bo'lmoq”, “do'st tutinmoq” ma'nosidan olingan bo'lib, Allohga yaqin, Uning do'sti bo'lgan insonni bildiradi. Avliyo – valiy so'zining ko'plik shakli, ya'ni Haqning do'stlari, ilohiy nur sohiblari. Shayx esa tasavvuf yo'lida murshid, pir, ruhiy yetakchi timsolidir. Ular barchasi komil inson idealining turli bosqichlarini ramziy tarzda ifodalaydi. Tasavvufda valiy, shayx obrazlari payg'ambarlikdan keyingi ruhiy maqom hisoblanadi. Agar payg'ambarlar vahiy orqali haqiqatga yo'l ko'rsatuvchi bo'lsa, avliyolar ma'rifat va tajriba orqali Haqqa yetaklovchi insondir. Jumladan, Xizr (a.s.) hayot suvi – obi hayvondan ichgan, abadiy yashovchi, insonlar orasida eng oliy maqom egasi deb qaraladi. Tasavvuf adabiyotida u ma'rifat, abadiylik, pirlilik kabi ma'nolarni o'zida mujassam etib keladi.

Ey Xizr, hayvon suyi tut dam-badamkim yor uchun,

Sadqa qilmoqliq uchun har lahza bir jon istaram[1:402].

Baytdagi tasavvufiy istilohlarga nazar tashlaymiz: “Xizr” – yo'l ko'rsatuvchi, murshid, “hayvon suyi” – abadiy tiriklik, “yor” – mahbuba; Haq, “jon” – ruh. Ya'ni, oshiqlik – har nafasda o'zligini qurbon qilish, nafsni o'ldirish, Alloh bilan birlashishdir, degan asos g'oyani talmeh san'ati yordamida yuzaga keltiradi.

Kitobiy obrazlar. Har qancha xalq rivoyatlariga asoslangan bo'lsa ham, tasavvufda bu kabi obrazlar bir talay. Mumtoz adabiyotda Farhod, Shirin, Layli, Majnun singari qahramonlar dastlab dunyoviy muhabbat syujetlari orqali shakllangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ular tasavvufiy tafakkur ta'sirida majoziy ishqning ramziy timsollari sifatida talqin qilina boshladi. Tasavvufda insonga berilgan dunyoviy muhabbat voqeasi – ilohiy haqiqatga eltuvchi ko'prik, ishq yo'lchining ya'ni oshiqning qalbini poklovchi vosita sifatida tushuniladi. Shuning uchun klassik kitobiy qahramonlar ham asta-sekin komil inson konsepsiyasining badiiy timsollariga aylangan. Shu sabab ular Sharq mumtoz poetikasida ramzlar tizimining eng muhim qatlamini tashkil etadi.

Dilbari ollida Majnun naqdi jon sarf etmadi,

Ey Navoiy, ishq atvori musallamdur manga [1: 53].

“Majnun” – chin oshiq timsoli, ammo baytda haqiqiy Yor oldida uning jonini berishi ham hech narsa emasligi, shoir o‘zini bu ilohiy ishqning odatlaridan, u talab qiladigan fidoyilik va iztiroblardan yaxshi xabardorligini isbotlash uchun tamsil qilganligi yuzaga chiqadi. Masalan, Shirin – Alloh taoloning Kamol sifati jilvasi, uning muhabbati Haqiqat sari eltuvchi ma’rifat manzili bo‘lsa, Farhodning asosiy fazilati ishq yo‘lida to‘xtamas mehnat, sabr va fidoyilikdir. Shirin qanchalik yuksak bo‘lsa, Farhod shunchalik o‘zini riyozatga soladi. Bu solikning Haqqa yetishish yo‘lidagi martabalariga mos keladi. Majnun (Qays) – “aqldan ozgan” emas, balki aql qobig‘idan chiqib, Ishq haqiqatiga yetgan solikdir. Nega bu qahramonlar tasavvufiy obrazga aylandi? Chunki, Ishq yo‘li tasavvuf adabiyotining ham markazida turadi. Kitobiy qahramonlarning barchasi ishq yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan.

Ramziy va majoziy obrazlar (narsa-predmet, o‘simlik, jonzotlar). Tasavvuf adabiyotida narsa va predmetlarga oid obrazlar – buyumlar, hayvon va o‘simlik nomlari oddiy ma’no doirasidan chiqib, chuqur ramziy hamda majoziy mazmun kasb etadi. Bu obrazlar orqali shoirlar sezgi bilan idrok etiladigan narsalardan ruhiy-ma’naviy haqiqatlarga o‘tish yo‘lini yaratadilar. Natijada may, jom; gul, bulbul; sham, nur, parvona kabi unsurlar ko‘pincha haqiqatga ishora qiluvchi ramzlar darajasiga ko‘tariladi.

G‘am cheriki behaddur, chorasi budur, Bobur:

Bodani ko‘mak keltur, jomni himoyat tut![13: 18]

Bir qarashda shoir aysh-u ishrat yordamida dunyo tashvishlaridan xalos bo‘lish mumkinligini uqtirayotgandek ko‘rinuvchi ushbu bayt aslida chuqur falsafiy mazmunga ega. “G‘am” – ma’shuqning talabi va unga qovushish istagi ila oshiqning fidokorona mehnati. Chunki g‘am ma’shuq-la bo‘lgan ayriliqda tug‘iladi[8: 56]. “G‘am cheriki” – dunyo tashvishlari, nafs balolari, hayotning sinovlari sifatida talqin qilinadi. Ya’ni, g‘am lashkar tortib turli yo‘llar bilan oshiq ustiga bostirib keladi, Ma’shuqdan ayirishga majbur qiladi. “Boda” – Ilohiy ishqning yuksalishi, “jom” – uning maskani. Jomni himoyat tut – qalbingni asra, unga Haq nuri tushishiga yo‘l och, dunyoviy g‘am to‘ldirib yubormasin, demoqchi shoir.

Insonlar va ularning a‘zolari bilan bog‘liq obrazlar. Mumtoz adabiyotda inson obrazi badiiy tasvirning markaziy unsuri hisoblanadi. U faqat individual portret sifatida emas, balki “qahramon-makon-manzara” tizimi bilan bog‘langan ijtimoiy va ruhiy tipologiya sifatida shakllanadi. Tasavvuf esa bu obrazlarni insonning ruhiy holatlari va ma’rifiy darajalari bilan bog‘laydi. Natijada shaxsning ayrim tiplari – “soqiy”, “mug‘bacha”, “shoh”, “gado”, “darvesh”, “qalandar” – majoziy emas, arxetipik obrazlar sifatida takrorlanib, o‘zining qat’iy semantik maydoniga ega bo‘ladi. Masalan, mumtoz poetikada soqiy shunchaki may tarqatuvchi emas, ma’rifatni solikka yetkazuvchi (may – ilohiy ma’rifat), mastlik holatini uyg‘otuvchi (jazba holatini keltirib chiqaradi) bo‘lib, Haqdan kelgan nurni oshiq qalbiga ko‘chiradi. Soqiy “ishqning boshlanishi” arxetipini

ifodalaydi, Haqiqatning birinchi jilvasi, ilohiy nurning birinchi tegishi. O‘quvchi uchun u “kimdir”, oshiq uchun esa “jarayonning bir bo‘lagi” deyish mumkin.

Tasavvufiy she‘riyatda inson a‘zolari ko‘pincha tashqi anatomik mazmundan yiroqlashib, murakkab ramziy-majoziy qatlamlarga ega bo‘ladi. Mutasavvif shoirlar inson tanasining ayrim qismlarini ma‘rifat yo‘lida kechgan ruhiy jarayonlarni ifodalash uchun qulay ramz sifatida talqin qilgan.

Qahramonning tashqi ko‘rinishi, a‘zolari, ruhiy holati, xatti-harakati va nutqi orqali muallif o‘zining g‘oyaviy-estetik niyatini ifodalaydi. Ammo tasavvuf adabiyotida shaxsning muayyan a‘zosi, masalan, “ko‘z”, “qosh”, “lab”, “zabon”, “barmoq”, “dahan” kabilar ko‘pincha ramziy ma‘no kasb etadi. N.Go‘yushov o‘z tadqiqotida inson a‘zolarining bir nechtasini izohlab beradi: Dahan – Haq taoloning takallum (so‘zlash) sifatiga ishoradir. U kichik va yig‘iq bo‘lgani bois, barcha haqiqatlarni o‘zida jamlagan vahdat (birlik) qutichasi hisoblanadi. Qomatning to‘g‘ri bo‘lishi vahdatga ishoradir, to‘g‘ri yo‘l – Haqning yo‘lidir va bu yo‘l vahdatga olib boradi. To‘g‘ri chiziq, ya‘ni meridian singari, koinotning yaxlitligini saqlab turadi [8: 11]. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, butun koinotda nimaiki bo‘lsa, inson vujudida ham u mujassamdir. Inson a‘zolariga ramziy ma‘no yuklash orqali "Kim o‘zini tanisa, Robbini taniydi" hadisiga amal qilinadi.

Tasavvuf va mumtoz Sharq poetikasi bo‘yicha yirik tadqiqotchi Y.E.Bertels o‘zining “Zulf va yuz” mavzusiga bag‘ishlangan ilmiy maqolasida bu ikki obrazning poetik tizimdagi markaziy o‘rnini chuqur tahlil qiladi. Olimning ta‘kidlashicha: “Yuzning munavvarligi va zulfning qoraligi tun va kun timsolini kiritish imkonini beradi, bunday yondoshliklarni esa orttirib boraverish mumkin.”[5: 119] Shu bois, mumtoz shoirlar zulfni “haqiqatni yashiruvchi pardalar”, yuzni esa “haqiqatning chaqnagan shu‘lasi” sifatida talqin qiladilar. Zulfning qorong‘uligi, halqasimon shakli, tartibsizligi – haqiqatning sirliligi, g‘oyib olamga pardalanganligining badiiy ifodasidir. Zulflarning “halqa – zanjir” tarzidagi tasviri oshiqning bandi bo‘lib qolishdan ogoh bo‘lishini ifodalaydi.

Bobur, ul gul zulfi ostinda emastur xollar,

Jon qushin sayd aylar uchun donalardur domida[13: 18].

Makon va zamonga oid timsollar. Mumtoz adabiyot poetikasida makon va zamon kategoriyalari real borliqning oddiy ifodasi sifatida emas, balki ramziy-majoziy tafakkur mahsuli bo‘lgan badiiy-falsafiy timsollar tizimi sifatida naamoyon bo‘ladi. Ushbu timsollar asosan tasavvufiy dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, insonning mavjudlik mohiyati, ruhiy kamolot bosqichlari hamda ilohiy haqiqatni idrok etish jarayonini badiiy talqin qilishga xizmat qiladi. Bu kabi obrazlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit ramziy tizim sifatida qo‘llaniladi.

“Bazmi Alast” timsoli tasavvufiy adabiyotda inson va ilohiy haqiqat o‘rtasidagi azaliy ahdni ifodalovchi muhim timsollardan biridir. Timsol ruhlar olamida kechgan ilohiy muloqot ramzi bo‘lib, insonning Alloh bilan bo‘lgan bog‘liqligi tug‘ma va abadiy ekanini ta‘kidlaydi. Aliybeg Rustamiy «Bazmi Alast» tushunchasini inson ruhining moddiy

borliqdan muqaddam, «a'yoni sobita» martabasida Ilohiy jamol va ishq tajalliysidan bahramand bo'lgan azaliy holati sifatida talqin etadi. Tadqiqotchining fikricha, bu jarayon «vujudiy-i shihodiy» tajalliy natijasi bo'lib, unda komil ruhlar o'zlarining azaliy iste'dod va qobiliyatlariga ko'ra Haq ma'rifatidan sarmast bo'lganlar hamda mumtoz she'riyatdagi «azaliy mastlik» timsoli aynan mana shu ilohiy ahd (miysoq) va ruhan uyg'oqlikning badiiy ifodasidir[11: 153] “Olam” va “osmon” timsollari mumtoz matnlarda kosmik tartib, mavjudotlar o'rtasidagi uyg'unlik hamda ilohiy qudratning mujassam ifodasi sifatida talqin qilinadi. Bu timsollar orqali inson va koinot o'rtasidagi metafizik bog'liqlik, mikro va makrokosmos birligi g'oyasi ilgari suriladi.

Ul quyosh hajrinda bilmamkim, Navoiy ko'ziga

Barcha olam tiyradur yo bog'lamishdur chashmband [2: 115].

Bayt Alisher Navoiy lirikasiga xos tasavvufiy ramzlar orqali ilohiy ishq holatini ifodalaydi. "Quyosh" tasavvufda Haq taoloning nuri, jamoli va mutlaq haqiqat ramzidir. "Hajr" esa solikning ilohiy manbadan uzoqlik holati bo'lib, iztirob va sinovni anglatadi. Lirik qahramon Haq nuridan judo bo'lgan holatda borliqni zulmatda ko'radi. "Navoiy ko'zi" tashqi ko'rish emas, balki "basirat", ya'ni ma'naviy idrok timsolidir. "Barcha olam tiyradur" degan ifoda Haq jamolisiz mavjudotning ma'nosiz va zulmatli ko'rinishini bildiradi. "Chashmband" esa nafs, dunyoviy bog'liqlik va hijoblar sabab haqiqatni idrok eta olmaslik ramzidir.

Mavhum tushunchalar bilan ifodalanuvchi obrazlar. Tasavvuf adabiyotida mavhum tushunchalar asosida shakllangan obrazlar badiiy tafakkurning eng chuqur va murakkab qatlamini tashkil etadi hamda ushbu adabiyot dunyoqarashining asosiy kategoriyalarini badiiy shaklga soluvchi muhim vosita hisoblanadi. "Ishq" obrazi mazkur tizimda markaziy o'rin egallab, u insonni mutlaq haqiqat sari yetaklovchi kuch sifatida talqin etiladi. "Basirat" (arabcha: بصيرة – botiniy nigoh, qarash)[7: 78] va "voqif" tushunchalari esa botiniy idrok va ma'naviy ogohlik darajasini ifodalab, zohiriy bilimdan yuksak turuvchi anglash holatini bildiradi. Umuman olganda, mavhum tushunchalar bilan ifodalanuvchi obrazlar mumtoz adabiyotda ruhiy-axloqiy, falsafiy va tasavvufiy mazmuni mujassam etgan markaziy badiiy vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Rahmat eshigin Mashrabga ochgil,

Ishqing ko'yida o'lgoli keldim [6: 88].

Mazkur baytda Mashrab tasavvuf adabiyotiga xos bo'lgan asosiy tushunchalar – ilohiy rahmat va ishq konsepsiyalarini ramziy shaklda ifodalaydi. "Rahmat eshigi" obrazi Ollohning marhamati, mag'firati hamda ma'rifat sari ochiladigan ilohiy yo'lni anglatadi. Lirik qahramon o'zini mutlaq ojiz banda sifatida ko'rsatib, ilohiy rahmatga muhtojlik holatini ta'kidlaydi. Mashrab ijodida ishq markaziy obrazlardan biri bo'lib, u shoir poetik tafakkurining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi.

XX asr va zamonaviy she'riyatda tasavvufiy adabiyotining istiqboli mumtoz poetik an'analarning bevosita davomchisi sifatida yangicha badiiy-falsafiy tafakkur shaklida

namoyon bo‘lmoqda. Bu davr she‘riyatida tasavvuf g‘oyalari an‘anaviy mazmundan insonning ichki olami, ruhiy izlanishlari va ekzistensial muammolarini ifodalovchi ramziy-estetik vosita sifatida talqin etilmoqda.

Xulosa. Tasavvuf adabiyotidagi barcha obrazlar turli shakllarda ifodalansa-da, ularning asosiy vazifasi insonni Alloh bilan qalban birlashishga yetaklashdir. Bu tamoyil nafaqat estetik va didaktik strategiyalarning markazida turadi, balki adabiy tahlilning ham asosiy yo‘nalishini belgilaydi. Obrazlar, ramzlar va tushunchalar insonning ruhiy va ma‘naviy holatlarni aks ettirib, mutolaa qiluvchi kitobxonga bu jarayonni idrok etish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan har bir tasavvufiy element – mavhum tushunchalar, ramzlar yoki adabiy qahramonlar – bir butun sifatida Alloh bilan birlikka yetishish yo‘lida vosita rolini bajaradi. Bu esa tasavvuf she‘riyatining nafaqat badiiy, balki falsafiy, psixologik va pedagogik qirralarini ochib beradi, uni chuqur nazariy tahlil qilish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari oliy o‘quv yurtlarida “Tasavvuf va badiiyat” kurslarini o‘qitishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд. Т.: Фан, 1987.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 3-жилд. Т.: Фан, 1988.
3. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. 4-жилд – Т.: Фафур Фулом, 2011.
4. Avaznazarov O. Navoiy timsollari so‘zligi. – T.: Spectrum media group, 2024.
5. Бертельс Е. Э. Суфизм и суфийская литература. — М.: Наука, 1965.
6. Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним, қайдасан. — Т.: Фафур Фулом, 1990.
7. Болтабоев Ҳ. Адабиёт энциклопедияси. II жилд. — Т.: Мумтоз сўз, 2017.
8. Göyüşov N. Tesevvüf anlamları ve dervişlik remzleri. — Bakı, 2001.
9. Mullaxo‘jayeva K., Zohidov R. Turkiy adabiyot durdonalari. Mashrab, So‘fi Olloyor. — T.: O‘zbekiston, 2022.
10. Nicholson, R. A. The mystics of Islam. – London: G. Bell and Sons LTD, 1914.
11. Рустамий А. Маст-и Аласт // Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик, 4-жилд. — Т.: Тамаддун, 2021.
12. Trimmingham, J. S. Sufi orders in Islam. – Oxford: Clarendon Press, 1971.
13. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. — Т.: Фан, 1994.
14. Шах Идрис. Суфизм. — Москва: Клышников, Комаров и Ко, 1994.
15. Шиммел А. Жонон менинг жонимда. – Тошкент: Шарқ, 1999.